



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



“TARBIYANING NAZARIYASINING MOHIYATI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI”

Abdusamadova Zaynab Bahriddin qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar
fakulteti 2- kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarbiya nazariyasining asosiy mohiyati, uning nazariy va amaliy jihatlari jamiyat hayotida tutgan roli tahlil qilinadi. Maqolada tarbiya nazariyasining rivojlanish bosqichlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida jamiyatda tarbiyaning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek maqolada tarbiyaviy jamiyat mazmuni, tamoyillari, qonuniyatlari, uni tashkil etish masalalari, metodikasi shakllari, metodlari, vositalari, usullari va muammolari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, shaxs, jamiyat, pedagogik qarashlar, tarbiyaning maqsadi, kategoriya, tarbiya xususiyatlari, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot.*

Аннотация: *В данной статье анализируется сущность теории воспитания, её теоретические и практические аспекты, а также роль в общественной жизни. В статье рассматриваются этапы развития теории воспитания, современные педагогические подходы, а также значение воспитания в обществе на основе национальных и общечеловеческих ценностей. Кроме того, в работе анализируются содержание, принципы и закономерности воспитательного процесса, вопросы его организации, методические формы, методы, средства, приёмы и проблемы воспитания.*

Annotation: *This article analyzes the essence of the theory of education, its theoretical and practical aspects, and its role in social life. The study examines the stages of development of the theory of education, modern pedagogical approaches, and the importance of education in society based on national and universal human values. In addition, the article explores the content, principles, and regularities of the educational process, as well as issues of its organization, methodological forms, methods, means, techniques, and related challenges.*

Pedagogika fanining muhim bo'limlaridan biri tarbiya nazariyasidir. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakli, metodlari, vosita va usullari va muammolarini o'rganadi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib- insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida - bilim, xis-hayajon, estetika, odo-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga xos jihatlari, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Tarbiya nazariyasi Sharq mutaffakirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Tarbiya — arabcha soʻzdan olingan boʻlib, parvarish qilmoq, taʼlim bermok, oʻrgatish, odob oʻrgatish, mehribonlik koʻrsatish, himoya qilish singari maʼnolarni anglatadi. Shu oʻrinda Zardushtlik dinining muqaddas kitobi boʻlmish “Avesto” ning ahamiyatiga ega. “Avesto”da insonning barkamol boʻlib yetishishida uning soʻzi, fikri, ishi, birligiga katta eʼtibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab tarbiyaning muhim maʼrifiy asosi boʻlgan desak xato qilmaymiz.

Ayni paytda, “Avesto”da inson tafakkuri, insonlarning jamiyatda tutgan oʻrniga munosabati toʻliq yoritilgan. Zardusht taʼlimotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan:

Tarbiya — hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) boʻlib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi oʻqishni va soʻngra esa yozishni oʻrganishi bilan eng yuqori pogʻonaga koʻtarilsin deb aytadi va yana “yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasl — sogʻlom avlod qoladi” — deb taʼkidlaydi.

Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo boʻlishi bilan vujudga keladi, taraqqiy etdi, jamiyatning oʻzgarishi bilan tarbiya ham oʻzgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar — axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yigʻindisidir.

Tarbiyaviy jarayon oʻqituvchi va oʻquvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar oʻrtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yoʻnaltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, xis-tuygʻulari rivojlanadi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan toʻgʻri uyushtirish gʻoyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqi taʼsir kelayotgan tarbiyaviy taʼsirlarga nisbatan maʼlum munosabatda boʻladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlariga ham bogʻliq. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki, his-tuygʻulari ham oʻzgarib borish, unda zarur axloqiy malaka va odatlarning ahloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy xatti-harakatlar odatiga aylanib qolishi lozim.

Bunga erishish uchun oʻquvchining ongi (taʼlim jarayoni asosida) his-tuygʻusiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, har xil ijtimoiy ishlarni tashkil etish orqali) tizimli taʼsir etib boriladi. Oʻquvchini tarbiyalashda bularning birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) eʼtibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni koʻp qirrali va murakkab jarayon sifatida yuritiladi.

Uning xususiyatlari 1-shaklda quyidagicha aks ettirilgan.

Tarbiyaviy jarayonning xususiyatlari:

- Koʻp qirrali jarayon
- Uzoq muddatli jarayon
- Uyushtirish jarayoni
- Uzluksiz jarayon
- Ikki tomonlama aloqa jarayoni
- Qarama-qarshiliklardan iborat





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Tarbiyaning mohiyati pedagogik jarayonda muhim o‘rin tutadi. Tarbiya bu shaxsning axloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlovchi jarayon bo‘lib, ta‘lim bilan uzviy bog‘liqdir. Pedagogik jarayonda tarbiya faqat ilmiy bilimlar berish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga uning dunyoqarashini shakllantirishga ham qaratilgan. Tarbiyaning samarali bo‘lishi uchun pedagog o‘z metodlari, uslublari va usullarini to‘g‘ri tanlashi, o‘quvchi bilan do‘stona, ijobiy munosabatlarni o‘rnatishi lozim. Tarbiyaning asosiy maqsadi-nafaqat bilim balki ma‘naviy axloqiy qadriyatlarini shakllantirish hamdir.

Tarbiya – biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan reja ega bo‘ladi va buning uchun maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar shaxsning axloqi va odobi, iymon va vijdoni, bilimi – malakasi, xatti-harakatlari, vo‘nishlari, tarbiyaviy sifatlarini talablar va ehtiyojlari, istiqbol vazifalari bilan uyg‘unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O‘z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo‘lgan muayyan maqsadlarni qo‘ygan davlatlar ham ta‘lim-tarbiya ishlariga befarq qarashmagan.

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari o‘g‘itlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug‘larining unishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois mutafakkir allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Muqanniy, Abdulla Avloniy va boshqalarning ta‘lim-tarbiya va ma‘rifat haqidagi g‘oyalari keng foydalangan bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim o‘rin bo‘lib hisoblanadi.

Abu Nasr Forobiy birinchi bo‘lib “ta‘lim va tarbiya”ga ta‘rif bergan olimlardan biridir. Forobiy “Ta‘lim – so‘z, o‘rgatish orqali bilim berishdir, tarbiya esa – amaliy ish, ya‘ni mashq va tajriba orqali axloqiy fazilatlarini hosil qilishdir”, – deb ta‘kidlaydi. Demak, Forobiy fikricha, ta‘lim va tarbiya bir-biriga bog‘liq bo‘lib, biri nazariy, ikkinchisi esa amaliy yo‘l bilan insonni komillikka yetaklaydi. Forobiy fikriga ko‘ra, insonni baxtga eltuvchi yo‘l – bu ilm va ma‘rifatdir. U ilmni insoniy kamolotning eng yuksak darajasi, tarbiyani esa uni amalda qo‘llash vositasi deb bilgan. Forobiy tarbiya jarayonida inson o‘zini tuta bilish, boshqalar bilan muomala qilish, halollik, adolat, sabr-toqat, kamtarlik kabi fazilatlarini egallashi lozimligini uqtiradi.

Abu Rayhon Beruniy ham tarbiya masalasiga katta e‘tibor qaratgan. U insonni tarbiyalashda ijtimoiy muhit, oila, atrofdagilar va jamiyatning roli muhimligini ta‘kidlagan. Beruniy: “Inson bilim va axloq orqali yuksaladi, jaholat esa uni tubanlikka tushiradi”, – deya ta‘lim va tarbiya birligini asoslab bergan.

Yusuf Xos Xojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida ta‘lim va tarbiya orqali komil insonni tarbiyalash g‘oyasini ilgari suradi. Unga ko‘ra, insonni kamolga eltuvchi yo‘l – bu adolat, halollik, bilim va ezgulikdir. U yoshlarni halol, mehnatsevar, bilimli, adolatli, vatanparvar bo‘lishga da‘vat etgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Abdulla Avloniy esa o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday degan: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.” Bu so‘zlar tarbiyaning naqadar muhimligini, millat kelajagi aynan tarbiyaga bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi. Avloniy ta‘lim va tarbiyani bir-biridan ajralmas tushuncha sifatida izohlaydi. Uning fikricha, “Ta‘limsiz tarbiya – ko‘r, tarbiyasiz ta‘lim – loy.” Demak, ilm va axloq bir-birini to‘ldiruvchi omillardir. Ilm insonni nurafshon qilsa, tarbiya uni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi.

Tarbiya qoidasi pedagog ta‘lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanilgan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o‘qituvchi tarbiyachilarga yo‘l- yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalariga quydagilarni kiritish mumkin:

- tarbiyaning maqsadga qaratilgan qoidasi.
- tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.
- tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi
- tarbiyada o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarning hisobga olish qoidasi.
- izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta’sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

O‘zbek xalqining madaniy merosini o‘rganishda va rivojlantirishda milliy o‘ziga xosligi, ma’naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogika an’alariga suyangan holda ish ko‘rilishi maqsadga muvofiq. Xalqimizning ko‘p asrli qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas. O‘zbek xalqi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. Ismoil-al Buxoriy, al -Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Sadiy Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutaffakirlarning asarlari orqali o‘quvchilar go‘zal axloq, baxt, insof, poklik, sabr- matonat tushunchalari haqida keng tasavvurga ega bo‘ladilar.

Bugungi kunda tarbiya jarayonidagi muammolar:

1. Oila tarbiyasining zaiflashuvi

Ba’zi oilalarda ota-onalar farzand tarbiyasiga yetarlicha e’tibor bermayapti. Iqtisodiy muammolar, bandlik va vaqt yetishmasligi tufayli bolalarga mehr, e’tibor va nazorat kamroq berilmoqda.

Ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligi pastligi farzandlarda salbiy xulq shakllanishiga olib kelmoqda.

2. Axborot texnologiyalarining salbiy ta’siri

Internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli onlayn kontentlar bolalarning dunyoqarashi va qadriyatlariga ta’sir o‘tkazmoqda. Noto‘g‘ri axborot oqimi, zo‘ravonlik yoki g‘ayridamiiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentlar yoshlar ongida salbiy iz qoldirmoqda.

3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning sust targ‘ib qilinishi

Ba’zi ta‘lim muassasalarida milliy g‘urur, vatanparvarlik, odob-axloq masalalari yetarli darajada yoritilmaydi. Yoshlarda milliy identifikatsiya, o‘zligini anglash hissi sustlashmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



4. O‘qituvchi va tarbiyachilarning nufuzi pasayishi

Ba’zi hollarda pedagoglarning moddiy va ma’naviy rag‘batlanishi yetarli emas. Natijada o‘qituvchi va tarbiyachilar obro‘si jamiyatda avvalgidek yuksak darajada emas.

5. Ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning formal tus olishi

Ko‘plab maktab va kollejlarda faqat hisobot uchun tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazmoqda. Tadbirlar mazmunan emas, tashkiliy jihatdan bajarilayotgan holatlar uchramoqda.

6. Mahalla, maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi

Tarbiya uchburchagi – oila, maktab va mahalla – o‘rtasidagi uzviy aloqa yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Har biri alohida ishlaydi, bu esa tarbiyada uzilishlarga sabab bo‘ladi.

7. Globalizatsiya va madaniy aralashuv

Chet el madaniyati va turmush tarzining ta’siri ostida ayrim yoshlar o‘z milliy qadriyatlarini kamsitadi. “Modali” yoki “zamonaviy” degan tushunchalar ba’zan ma’naviy qadriyatlarga zid shaklda talqin qilinmoqda.

Xulosa

Bugungi kunda tarbiya jarayonidagi muammolarni bartaraf etish uchun:

- oila, maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish;
- o‘qituvchilar nufuzini oshirish;
- yoshlar uchun sog‘lom axborot maydonini yaratish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur singdirish zarur.

Tarbiya nazariyasi — insoniyat ma’naviy, madaniy va intellektual taraqqiyotining poydevorini tashkil etuvchi eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish, uni milliy qadriyatlar hamda umuminsoniy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish har qachongidan ham dolzarbdir. Maqolada yoritilganidek, tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari va metodlari jamiyatning har bir a’zosi — shaxs, oila, maktab va mahalla — o‘rtasidagi hamkorlikda to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida shakllanayotgan tarbiya tizimi faqat bilim berish emas, balki barkamol, ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Shu boisdan, tarbiya nazariyasini yanada takomillashtirish, uni hayotga tatbiq etishda innovatsion va axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish — taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya nazariyasi va amaliyotining uyg‘unligi, milliy qadriyatlar bilan boyitilgan insonparvar yondashuv jamiyat barqarorligi va kelajak avlod kamolotining kafolatidir.

Har bir yosh avlodga to‘g‘ri yo‘naltirilgan, ma’naviy boy va hayotiy tajribaga asoslangan tarbiya berish – jamiyatning ertangi kunini belgilovchi eng muhim omillardandir. Chunki yosh avlod bugunning davomchisi, ertangi kunning yaratuvchisidir. Ularning dunyoqarashi, qadriyati va hayotga bo‘lgan munosabati aynan tarbiya tizimi orqali shakllanadi. Demak, har bir yosh avlodga berilayotgan tarbiya nafaqat shaxsiy kamolot, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Tarbiya nazariyasining zamonaviy talqini



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ana shu yuksak maqsadga xizmat qilishi lozim — ya'ni har tomonlama yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli, milliy g'urur va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni voyaga yetkazishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, N. (2020). Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
- 2.R.A.Mavlonova.(2018) Umumiy pedagogika. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
- 3.Yo'ldoshev, Q. N. (2018).Pedagogika asoslari. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
- 4.Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi):O'qtuvchilar: M. X. Toxtaxodjayva, S Nishonova, J. Hasanboye, M. Usmonboyeva, S. Madyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov.
5. X. Ibragimov, sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi., T., "Fan va texnologiya",2008. Masul muharrir:p.f.d, professor R.H. Jo'rayev

